



## HOZIRGI O‘ZBEK QISSALARIDA JANRLAR VA SHAKLLAR RANG-BARANGLIGI

*Suleymanova S.A.*

*CHDPU, Boshlang‘ich ta‘lim fakultetegi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** qissa, janr, ruhiyat, nazariya, nasr, adabiyotshunoslik, poetika.

**Ключевые слова:** рассказ, жанр, психика, теория, проза, литературоведение, поэтика.

**Key words:** story, genre, psychology, theory, prose, literary criticism, poetics.

### **Резюме:**

Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog‘liq muammolar bo‘lishini e‘tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o‘rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o‘lchovlariga unchalik to‘g‘ri kelmasligi aniq.

### **Резюме:**

Учитывая, что в жанре рассказа всегда есть проблемы с психикой, суть вопроса в проясняется. Понятно, что только одностороннее изучение проблемы мало соответствует измерениям проводимого нами исследования.

### **Summary:**

Considering that there are always mental problems in the genre of the story, the essence of the issue in Shandon becomes clear. It is clear that only a one-sided study of the problem does not correspond much to the measurements of the research we are conducting.

Qissa janrida doimo ruhiyat bilan bog‘liq muammolar bo‘lishini e‘tiborga olsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. Muammoning faqat bir tomonlama o‘rganilishi biz olib borayotgan tadqiqotning o‘lchovlariga unchalik to‘g‘ri kelmasligi aniq. Chunki XX asrning 20- yillaridan boshlangan sinfiylik va konfliktsizlik nazariyasi, ikkinchidan, sho‘ro siyosatining tutumlari masalaga teran kirib borish imkonini chegaralab qo‘ygandi. 60-yillardan keyingina erkinlik shabadalari (unda ham to‘laqonli tamoyil emas!) muammoga aynanlik nuqtai nazaridan borishga imkon bera boshladi. Unda ham sobiq ittifoq hududlarida yashab ijod qilgan, temir qonuniyat negizidan tashqariga unchalik erkin chiqa olmagan yozuvchilar ko‘pincha urush va uning salbiy oqibatlarini yuzaga chiqarishning uddasidan chiqa oldi xolos! Ch.Aytmatovning “Jamila”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, P.Qodirovning “Erk”, “Qadrim”, O‘.Umarbekovning “Sevgim, sevgilim”, Sh.Xolmirzayevning “To‘lqinlar”, O‘.Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” kabi o‘nlab qissalarda o‘sha



davrning odamlari ruhiyatidagi katta-kichik evrilishlar, o'zlikni tanish, oila va shaxslararo munosabatlar talqini shular jumlasidandir. 70-yillardan keyingi M.M.Do'st, E.A'zam, A.A'zam, A.Dilmurod kabi yozuvchilar uslubida tamomila boshqacha obrazlar sistemasi talqini yuzaga kela boshladi. Nihoyat 90-yillardan keyin badiiy adabiyotda shaxsning o'zini tasvirlash, o'zining muammolarini turli usul va yo'sinlarda namoyish qilish tradisiyasi o'lchov tig'izligini ranginlashtirdi. Bularning ko'pchiligi yangi odam obrazini ruhiy talqin qilish masalasiga sho'ng'ib ketishi kuzatiladi. Demak, muammoga turli davrlar dunyoqarashi, amaldagi kuchlar taqdimnomasidek baholash ishonchni oqlashi tayin.

XX asr adabiyotshunosligida qissa poetikasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlarda hayot haqiqati va inson konsepsiyasi muhim muammo sifatida o'rganilgan Prof. U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, N.Xudaybergenov va Q.Yo'ldoshevlarning olib borgan tadqiqotlarida masalaning u yoki bu jihatlari davrlar silsilasidagi poetik o'zgarishlar fonida talqin qilingani ayni haqiqatdir. Bu tadqiqotlarning ko'pchiligi o'sha davr nuqtai nazaridan talqin qilinib, o'z ilmiy bahosini oldi.

O'tgan davr mobaynida yozuvchilar badiiy asarni o'rganishda uchta tamoyilga diqqat qaratishgan:

1. Yozuvchi jamiyat muammolarini qay darajada ifodalash masalasi hal eta oldi.
2. Hayotiy haqiqatga mos kelishi qay darajada ifodasini topgan.
3. Tabiatning bir uzvi (kolxozlashtirish siyosatiga qay darajada o'z hissasini qo'sha oldi) bo'lgan maishiy turmush an'alarini to'laqonli namoyon qilishga qurbi yetadimi. Mana shu uchta konsepsiyaga javob bergan yozuvchi badiiy izlanishlari munosib baholanib, o'quvchilarga o'qilishi muhim bo'lgan badiiy chizgilar (asarlar) sifatida taqdim qilingan. Bu zinhor o'zining ishonchini oqlaydigan ish emas. Chunki bir yoqlama talqin va tadqiq ham alal oqibatda nasrning badiiy qiymatiga zomin bo'lishi muhimligini bugungi kun ijtimoiy-madaniy hayot isbotini berib turibdi.

Qissa janrining kelib chiqishi o'zbek adabiyotida folklor asarlaridagi epik tasvir talqinlarida yuzaga kelganligini inkor qilib bo'lmaydi. Unda qahramonlikning ulug'vor qiyofasi, (Alpomish) mardlik va olijanoblikning tantanasi eng muhim shartlaridan biri ekanligi ayonlashadi. Shundan kelib chiqib, ilk qissa Allohning muqaddas kalomi – “Qur'oni karim”dagi payg'ambarlar haqidagi qissalar, Otam Ato va Momo Havo to'g'risidagi ibratli rivoyatlar bilan belgilanadi. XIII asrning noyob asarlaridan biri N.Rabg'o'ziyning “Qissasi Rabg'o'ziy”dagi qissalar janrning yanada takomillashuviga keng imkon tug'dirdi. Keyinchalik Yevropa, Amerika, Rus va Sharq adabiyotida qissa (povest)ning o'ziga xos shakllari namoyon bo'la boshladi.

Prof.U.Rasulova: “Farishta (ilohiy nur), ruh hamda vujud (nutfa) borasidagi ilmi avvalda arshi a'lo, kurrai zamin makoni qamrab olinadi. Qur'ondagi shar'iy ahkom bilan qissalarning uyg'unligida insonga yuborilgan sinovga ishora kuzatiladi. Bu

qissalar ma'lum surada izchil, ayrim oyatlarda jamlanib, muayyan payg'ambar fazli, karomatidan boxabar etadi. Faqat "Yusuf" surasida payg'ambar qismati yaxlit tarzda tizimli qamrab olinadi. "Baqara" surasida Odam alayhissalom hamda Momo Havoning jannat saodati, iblis nayrangi sinoati zamirida ilk bor imon va kufr ziddiyatiga urg'u beriladi. Suraning ma'lum o'rnida muqaddas farishta, o'z inson, makkor shayton – uch yaratilgan mohiyati teran mantiq asosida uqtirib bor". Ma'lumki, qissalarda 124 ming payg'ambar kelgani shulardan 313 tasi rasul qolgani nabiyya'ni kitobsiz bo'lgani qayd eslatilib, 25 payg'ambar tarixi Qur'onda oyat va suralar bag'riga singdirilib ifodalanishi barchamizga ma'lum. Demak, janrning ilk ildizlari haqida so'z borganda muqaddas kitob va undan keyingi sahobalar tomonidan olib borilgan islohotlarda aks ettiriladi. Sahobalar haqidagi qissalar ham shunday tarzda diniy olimlar, faylasuflar, mutafakirlar, shoirlar va zamonamiz tarixchilari tomonidan alohida kitob holida yozib borilgan.

Keyingi yillarda janr tadrijiy rivojlanib, haqqoniy o'z manerasiga ega chiqdi. Prof.M.Qo'chqorova ta'kidlaganidek: "Qissa janriga xos muhim nazariy belgilardan biri unda bitta qahramonning to'laqonli sarguzashti hikoya etilishidir. Qissa roman bilan hikoya o'rtasidagi janrdir. Shunga ko'ra qissada ba'zan roman janriga xos unsurlar, ba'zan esa hikoya, novvellaga xos unsurlar ko'rinish berib qoladi. Keyingi paytdagi nazariyotchi olimlar va o'zimizning bu janr borasidagi kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, qissa dominant bo'lgan asarda albatta, unga xos muhim belgilar bilan bir qatorda ba'zan boshqa janrlar (roman, novella, hikoya, esse, xotira)ning ham unsurlari ishtirok etaveradi. Lekin baribir, qissa janrining dominantligi hisobiga qissa bo'lib qolaveradi". Binobarin, qissaning epik tur orasidagi ifoda shakllari o'z mohiyatiga ko'ra davrning ehtiyoji sabab o'zgarishga mahkumligi bilan ham ajralib turadi. Boshqacha aytganda, bitta qahramon atrofida birlashayotgan voqelik yozuvchi ijodiy konsepsiyasi hosilasidir.

Badiiy psixologizmga to'xtaladigan bo'lsak, qissa tabiatida ikki muhim jihat qamrov kengligini taqozolaydi. A.B.Yesin "Psixologizm – bu adabiyotning o'ziga xos vositalari yordamida xayoliy va to'qima, shaxs va his-tuyg'u, fikr va lirizimga yo'g'rilgan kechinmalarning yetarlicha istifoda etilishi, mufassal va teran tarzda tasvirlanishidir" desa, L.G.Ginzburgning talqinda – psixologizm qahramon ichki olamining ratsional, soddalashgan tasvir ekzistensiyasi, va uyg'un ifodasi emas, balki asar qahramonlaridagi o'zini tutish, yashash, anglashda xayolotiga kelmagan, tasodifiy, nogahoniy bir lashzada qarama-qarshiliklardan boshlanadi" deya alohida mantiqiy dalolatlaydi. Har ikki olim ham psixologizm muammosiga turlicha rakurslardan yondoshadi. Tasodifiy ro'y bergan voqelik qahramonni kuchli depressiyaga, quvonu shodlik esa g'am-g'ussaning barham topishiga olib kelishi tayin. Negaki, inson ruhiy olami – ikki qarama-qarshi tushunchalar atrofida yuzaga chiqadi. Odam birdan quvonib, shodlanib ketgandagi kayfiyati uni yanada irodali



bo'lishga yetaklasa, ba'zi tushkunlik orqasida sinov, g'am-g'ussaning bahridan o'tish yo'llari qabarib ko'rinadi. Yozuvchi har ikki jihatni ham bitta miyasida hayotiy haqiqatga aylantiradi. Buni hech bir davr munaqqidi inkor qilolmasa kerak deb, o'ylaymiz.

Qissadagi aniq chegaradagi to'g'ri belgilab olishimiz zarur. Unda bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar o'z ifodasini topishi muhim: "Povest janriga mansub bo'lgan asarlarda qamrab olingan davrdan qat'i nazar bosh qahramon hayotida mavjud bo'lgan barcha voqealarning batafsil tasvirlanishi shart emas. Yozuvchi o'sha voqealarning eng asosiylarini tanlab oladi, qaysiki bosh qahramonning xarakterini ochishga qulay kelgan, asar g'oyasini ochishga xizmat qiladigan voqealarnigina kengroq tasvirlaydi". Haqiqatdan ham, povestda poetik qonuniyat qisadagi singari murakkab va olamshumul masalalarni idroklashga keng imkon bermaydi. Yozuvchi muayyan voqelik fonida harakatlanadi. Davrning og'riqlari va muammolari ma'lum bir sinfiy takomilda ayonlasha boradi. Qissada – vaqt nisbatan chegaralansa-da, qahramonning botiniy olamidagi evrilishlar asosan inson konsepsiyasi negizida talqin etiladi. U davrni ham, zamonni ham, makonni ham, tarixiy aspektidagi rolini ham maromiga bo'ysundiradi, natijada, davrning manzarasi haqqoniy qiyofada o'quvchi ko'zi o'ngida qayta jonlanadi. Dos.M.Boboxonov masalaga quyidagi rakursdan turib baho berishni ma'qul ko'rganligida masala mohiyatiga yaqinlashish kuzatiladi. Muallif yozishicha: "Zamonaviy adabiyotshunoslikda muammo markaziga hazrati insonni qo'yib gavdalantirish (antroposentrizm) an'anasi strukturalizmdan qolgan meros sifatida "gereosentrizm" tendensiyasiga, shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoniga diqqatning kuchayishiga bo'shatib berdi. Bugungi kunda insonni adabiy asar qahramoni sifatida o'rganish turli yo'nalishlar: ma'naviy-falsafiy muammolarning badiiy talqini, janr, kompozisiya, mavzu kabi kategoriyalar darajasida amalga oshirilmoqda". Binobarin, psixologik talqin birgina qahramon olamida emas, yozuvchi ruhiyatidan o'sib chiqqan iztirob alangasidir. U qissa syujetida ishtirok etayotgan barcha qahramonlar tabiatida – muvozanat birligini taqozolashga imkon beradi. Agar bordi-yu, bosh qahramon atrofida uyushgan tasvir metodologiyasiga zo'r zalvorli muammo yuksalanaversa, voqelik o'z-o'zidan sochilib ketishi tayin. Ayniqsa, ishq haqida bitilgan qissalarda yozuvchilar qaysi tomonga muhabbat qo'yishi dinamik o'sishda ochiq-oshkor seziladi. Bu emotsiya asta-sekinlik bilan qahramonda rivojlanib, o'quvchi ko'ngliga kirib olishi tayin. Demak, yozuvchi – davrning manzarasini, qahramonning ruhiyatini. Voqelik oqimini bir maxrajda jilvalantirmasa, ijodiy maqsad konseptual maydonga aylanmaydi. Aniqlikdan – noaniqlik kelib chiqishi tayin. Murakkab tasvir shtrixlarida bular ro'y-rost ko'z o'ngimizda namoyon bo'lishi hech gap emas.

Yunon faylasufi Arastu buni tragediya timsolida izohlagani hanuzgacha o‘z ifodasini yo‘qotgan emas: “Rivoyat, ba’zilar o‘ylaganidek, bitta qahramon atrofida aylansagina bir butun bo‘lavermaydi: chunki bir (shaxs) bilan aloqador bo‘lgan cheksiz, son-sanoqsiz hodisalar yuz berishi, hatto, ularning ba’zilari hech qanday butunlikka ega bo‘lmasligi mumkin. Bir shaxs xatti-harakati ham xuddi shunday ko‘p miqdordir, ulardan hech qanday yagona voqea yaratib bo‘lmaydi. Shuning uchun “Herakleida”, “Feseida” va shunga o‘xshash poemalarni yozgan shoirlar yanglishayotganga o‘xshaydi. Ular Herakl bitta edi, (u haqda) rivoyat ham bitta bo‘lishi darkor, deb o‘ylashmoqda. Homer, (o‘zga shoirlardan boshqa barcha sohalarda farqlanganiday) chamasi, badiiy mahorati yoki tabiiy iste’dodi tufayli bu masalaga ham to‘g‘ri qaragan. U “Odisseya”ni ijod etganida, qahramon nimalarni boshidan kechirgan bo‘lsa, hammasini. Masalan, u Parnasda qanday yarador bo‘lganini, urushga yordam to‘plash vaqtida qanday qilib o‘zini jinnilikka solganini ko‘rsatmadi, chunki bu voqealardan birining orqasida boshqasi ro‘y berishi uchun hech qanday zarurat (yoki) ehtimollik yo‘q edi; ha u “Odisseya”ni, shuningdek, “Iliada”ni ham biz aytgan ma’noda bir voqea doirasida yaratdi. Ko‘rinadiki, Arastu hikoya qilish (qisa yoki epopeya) san’atining nechog‘li muhim ekanligining dolzarbligini ziddiyatlar qurshovida qolgan qahramonning ruhiy-ijtimoiy kayfiyatidn kelib chiqib idroklash muhimligiga mantiqiy urg‘u bermoqda. Bundan kelib chiqadigan nazariya o‘z-o‘zidan ayonki, badiiy asardagi ruhiy iqlim yozuvchi va qahramon-muhit birligida shakllanib, ozodlikka talpingan mahbusdek bitta maqsadni yuzaga chiqishiga imkon beradi. Shu maqsaddan o‘lchaydigan bo‘lsak, yozuvchi davrning ham, qahramonning ham yonida turuvchi roviy. U o‘zining tafakkur konsnpsiyasini bir-biriga muqoyasa qilmoqda. Yozuvchi ilk jumalani to‘qiydi. U tabiat tasviri yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qahramon hayoti, joylashuvi, xatti-harakatining izchilligi negizida hal qiluvchi kuchga evrilib boradi. Shu ma’noda, insonning asl idrok sezimlari ham namoyon bo‘lib, maqsaddan – maqsad sari ma’no kuchayib, rang-barang ifodalarga aylanishda davom etadi. Arastu istak va xohish bo‘lgan joyda orzuning amalga oshishi tezlashadi degan konseptual g‘oyani ilgari surgani ham bejiz emas!

“Adabiyot tarixidan ma’lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar, an’analar o‘z dvrining estetik, ijtimoiy, g‘oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in’ikosi sifatida so‘z san’atida bo‘y ko‘rsatadi. Qadimgi davrda adabiyot yoki keyingi yuz yillik adabiyotmi, qaysi davr adabiyoti bo‘lishidan qat’i nazar, yangi bir oqimlar, so‘zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o‘sha jamiyatda paydo bo‘layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi”. Anglashiladiki, tarixiy-ijtimoiy jarayonning o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmasligi mumkin. Unda davrning qiyofasi



aks etadi. Davr esa odamlarning faol ijtimoiy yashash turmushining haqiqiy manzarasida ko‘zga tashlanadi.

Umuman, olganda, qissa poetikasida psixologik tasvir takomillashuvining tadrijiy o‘sish-o‘zgarishlari XX asrning 90-yillaridan keyingina mukammalashdi. Ayniqsa, istiqloq yillarida “o‘tish davri”ning odamlar taqdirida qoldirgan izlari bu hech bir davrdagidek tez suratda inqilob yasashga hozirlantirgani yo‘q, albatta!

Qissadagi kuchli psixologik vaziyat ayni shu uch savol tegrasida aylanadi. Savolning javobi esa voqelikning izchilligida yuzaga chiqib, polifonik nutq tabiatini namoyon etadi. Jumlandan, muallif matnining kontaminatsiyasi (bayonida turli nutqlarning aralashib ketishi hodisasi)da “muallif so‘zi” va “begona so‘zi”ning imkoniyatlarini belgilash uchun quyidagilarga aniqlik kiritib olish zarur:

a) muallif matnning muallifga tegishli bo‘lmagan matn ta‘sirida o‘z ko‘rinishini o‘zgartirishi, ya‘ni begona so‘zning muallif so‘ziga ta‘sirini;

b) bilvosita muallifga tegishli matnning muallif tomonidan ishlov berilishi ta‘sirida o‘z ko‘rinishini o‘zgartirishi, ya‘ni muallif so‘zining begona kimsa so‘ziga ta‘siri;

Shunday ekan, L.Bo‘rixon bir vaqtning o‘zida ikki tomonga ham o‘z munosabatini simpatiya, antipatiyasini bildirib boradi. Jamiyatning boshlab bergan soxta va nurli yo‘llarining aslida puch orzu ekanligini ishongan olomonning haqiqiy ruhiy-ijtimoiy yashash ko‘nikmalari. Ikkinchisi, mafkuraning o‘ta uzoqni ko‘zlab, bo‘ysundirib yashashga odatlantirilgan geosiyosiy xunrezliklarining asl qiyofasini fosh qilish mexnizmining talqini.

Shunday ekan, yozuvchi L.Bo‘rixonning “Sirli muallim” qissasining yozilganiga yigirma yillar bo‘ldi. Unda yozuvchi “Jaziramadagi odamlar” romandiga bosh qahramon O‘roq Umurzoqovning qahramonlarcha halok bo‘gan urush va uning qishloq hayoti, ahli uchun nihoyatda ayanchli ta‘siri gavdalaniriladi.

#### Adabiyotlar:

1. Абровров.А. Ўзбек повести. – Т: Фан, 1973. – Б. 9.
2. Арасту. Поэтика. –Т: “Янги аср авлоди”. 2018. –Б.34.
3. Бобохонов М. Ўзбек кссаларида бадий психологизм. Монография. –Т: “Баёз. 2014. –Б.15.
4. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л.Советский писател, 1971. –С.300.
5. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. Книга для учителя. –М. Просвещение. 1988. –С.18-19.
6. Лучанов М.Ф.История мировой литературы. – Омск, 2004.
7. Расулова У. XX аср ўзбек кссачилиги (поэтик изланишлар ва тараккиёт тамойиллари). Филол.ан.док.дисс. –Т.: 2020. –Б.15.
8. Сулейманова С. А. Дефиниция концепта в современном литературоведении //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 351-355.